

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARIDA OILA KONSEPTI

Tosheva Mamlakat Rustamovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19372471>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida oila konseptining badiiy talqini tahlil etiladi. Asarda oilaviy munosabatlar tizimi, ota-ona va farzand o‘rtasidagi aloqalar, mehr-muhabbat, fidoyilik, sabr-toqat kabi umuminsoniy qadriyatlarning ifodalanishi yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek oilasining ma’naviy-axloqiy qiyofasi yozuvchi tomonidan qanday badiiy vositalar orqali ochib berilgani ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Oila, ota-ona, farzand, tarbiya, muhit, fidoyilik, sabr-toqat, insoniylik, ma’naviyat, badiiy talqin.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimov ijodida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi chuqur va hayotiy tarzda tasvirlanadi. Yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasi oila konseptini badiiy jihatdan yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarda o‘zbek oilasining ichki muhitiga xos bo‘lgan mehr-oqibat, sabr-toqat, fidoyilik, burch va mas’uliyat kabi tushunchalar yuksak badiiy mahorat bilan ochib berilgan.

Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy institutidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning axloqiy fazilatlari, hayotga bo‘lgan munosabati avvalo oilada qaror topadi. Shu bois oila jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar aynan oilada shakllanib, avloddan-avlodga uzatiladi.

“Dunyoning ishlari” qissasida tasvirlangan voqealar muallifning hayotiy kuzatuvlari va bolalik xotiralari asosida yaratilgan bo‘lib, unda oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda samimiy va tabiiy tarzda ifodalanadi. Ayniqsa, ona obrazi asarning g‘oyaviy markazini tashkil etadi. Hakima aya obrazi orqali yozuvchi o‘zbek ayolining sabr-toqati, matonati, mehribonligi va fidoyiligini yorqin namoyon etadi.

“Qanoat” hikoyasida ikki xil ona obrazi qiyosiy tarzda tasvirlanadi. Bir ayol oilasidagi muammolarni oshkora qilib, doimiy norozilik bildiradi, ikkinchisi esa barcha qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berib, oilaning tinchligini saqlashga harakat qiladi. Bu qarama-qarshi tasvir orqali yozuvchi o‘zbek ayolining asl fazilatlarini ochib beradi va oila mustahkamligi ko‘p jihatdan onaning sabr-bardoshi va donishmandligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Asarda ota obrazi ham muhim o‘rin egallaydi. “Imon” hikoyasida ota obrazining fidoyiligi va mas’uliyati chuqur ochib berilgan. Bemor farzandining hayoti uchun kurashayotgan ota barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyor bo‘ladi. Uning harakati orqali ota mehrining naqadar kuchli va cheksiz ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Eng og‘ir gunoh” hikoyasida esa onaning farzandiga bo‘lgan cheksiz mehri va kechirimliligi tasvirlanadi. Ona farzandining aybini o‘z zimmasiga olib, uni himoya qiladi. Bu voqea farzand qalbida chuqur iz qoldirib, unda ota-onaga nisbatan hurmat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu esa oilaning tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, “Tush” va “Havas” hikoyalarida ham farzandning ota-onaga bo‘lgan munosabati, ayniqsa, onani qadrlash zarurligi, vaqtning qadriga yetish g‘oyalari ilgari suriladi.

Muallif bu orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi va uni hayotiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Umuman olganda, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi o‘zbek oilasining badiiy modeli sifatida muhim ilmiy-estetik ahamiyatga ega. Asarda oila a‘zolari o‘rtasidagi mehr-muhabbat, hurmat, fidoyilik va mas‘uliyat kabi qadriyatlar yuksak darajada ulug‘lanadi.

Ayniqsa, ona obrazi orqali ifodalangan fidoyilik va sabr-toqat asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi.

Mazkur asar o‘zbek oilasining ma‘naviy qiyofasini yoritishda muhim manba bo‘lib, unda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asar yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda, ularda oilaviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
2. Qo‘shjanov M. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Yo‘ldoshev Q. *Badiiy asar tahlili asoslari*. — Toshkent: Fan, 2012.
4. Rahmonov N. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: Akademyashr, 2015.